

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIGI**

2023 - yil 2 - avgust

160-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi **mustaqilligining 32 yilligini keng nishonlashga** puxta tayyorgarlik ko'rish, hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari ko'lamini yanada kengaytirish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalari holatini yaxshilash, **“mahalladan xonadongacha”** tamoyili asosida mahallar hududlarini obodonlashtirish orqali aholi farovonligini oshirish hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagi 459-F-sonli Farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagi 459-F-sonli Farmoyishi ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov, vazirlik va idoralar Nukus shahri va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda qonunchilikda belgilangan tartibda:

“mahalladan xonadongacha” tamoyili asosida **“Obodonlashtirish oyligi”** doirasida amalga oshiriladigan **chora-tadbirlar rejasi** va **tarmoq jadvalini** tasdiqlab, 2023-yil 25-iyulga qadar Vazirlar Mahkamasiga taqdim etsin;

tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi va tarmoq jadvaliga muvofiq amaliy ishlarni muddatida, to'liq va sifatli ijro etilishini ta'minlasin;

har hafta yakuni bo'yicha **“Obodonlashtirish oyligi”** doirasida amalga oshirilgan ishlar holatini tanqidiy muhokama qilib borish va unda tegishli rahbarlar hisobotlari eshitalishini ta'minlash choralari ko'rsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari o'rnatilgan tartibda:

“Obodonlashtirish oyligi” ishtirokchilari uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni texnika vositalari va anjomlar bilan ta'minlash;

amalga oshiriladigan tadbirlar uchun mahalliy budjetdan zarur mablag‘lar ajratish;

Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (X.Qaipnazarov) bilan hamkorlikda tadbirkorlik sub’ektlari bino va inshootlarining tashqi qiyofasini yaxshilash hamda ularga tutash hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish choralari ko‘rsin.

4. “Obodonlashtirish oyligi”ni tashkil etish doirasida vazirlik va idoralar Nukus shahri va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda quyidagilarga mas’ul etib belgilansin:

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (S.Turmanov) - fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan birgalikda har bir mahallada obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarini uyushqoqlik bilan tashkil etishga, ziyorotgohlar va qabristonlarni tartibga keltirish hamda Jamoat ishlari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ishsiz aholini obodonlashtirish ishlariga jalb qilishga;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (A.Qurbanbaev) -ko‘p kvartirali uylarni ta‘mirlash va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish, qurilish ob‘ektlaridan qurilish chiqindilari olib chiqib ketilishini tashkil etishga;

Transport vazirligi (M.Omarov), **Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi** (Sh.Dauletiyarov) - transport infratuzilmasi ob‘ektlarida (aeroport, vokzal, avtostansiya, metropoliten va bekatlar) tozalik va ozodalikni ta‘minlash, avtomobil yo‘li va temir yo‘l bo‘ylarida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etishga;

Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi (A.Narimbetov), **Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi** (N.Kayupov) – ta‘lim muassasalari va yotoqxonalarini o‘quv yili boshlanishiga tayyorlash, ushbu muassasalar hududlarini obodonlashtirish hamda zamonaviy sanitariya-gigiena infratuzilmasini tashkil etishga;

Sog‘liqni saqlash vazirligi (M.Kurbanov), **Madaniyat va turizm vazirligi** (Q.Turdiev), **Yoshlar siyosati va sport vazirligi** (A.Allanazarov) – sog‘liqni saqlash, madaniyat, turizm va sport ob‘ektlaridagi qurilish va ta‘mirlash ishlarini jadallashtirish hamda ushbu ob‘ektlar hududlarini obodonlashtirishga;

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Qoraqalpog‘iston filiali (A.Nurimbetov), **“Hududgaz Qoraqalpog‘iston” GTF** (X.Aymanov) – energetika tizimi ob‘ektlari, neft bazalari, avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalarini ta‘mirlash, hududlarini obodonlashtirish va kuz-qish mavsumiga tayyorlashga hamda **“Obodonlashtirish**

oyligi” davomida jalb etiladigan texnika vositalarini zarur yoqilg‘i materiallari bilan uzluksiz ta’minlashga;

Suv xo‘jaligi vazirligi (B.Juzbaev) – irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini ta’minlash, tozalash, suv ob’ektlarining qirg‘oq bo‘yi hududlarini obodonlashtirish hamda ekilgan daraxtlarga shakl berish ishlariga;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (D.Joldasov) – sanoat sohasidagi xo‘jalik birlashmalari bilan birgalikda sanoat korxonolari bino va inshootlarining tashqi qiyofasini yaxshilash, sanoat zonalari va korxonalar hududlarini obodonlashtirishga;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi (X.Bekchanov), **Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi** (B.Qutlimuratov) – bozorlar va savdo majmualari hududlarini ozoda holatda saqlash, do‘konlar va savdo rastalarini tartibga keltirish, hosil bo‘lgan chiqindilar kunlik olib chiqib ketilishini ta’minlashga;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (M.Djumaniyazov) – joylarda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari o‘tkazilishi jarayonida ekologiya talablariga rioya qilinishini nazorat qilishga, shuningdek, daraxtlarni noqonuniy kesish va nobud qilish holatlarining oldini olishga;

Ichki ishlar vazirligi (B.Torebekov) va **Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi** (A.Davletov) - Milliy gvardiya bilan birgalikda **“Obodonlashtirish oyligi”** o‘tkaziladigan kunlarda jamoat tartibini saqlash, yong‘in va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash hamda texnik jihatdan soz bo‘lgan texnika vositalaridan foydalanishni nazoratga olishga.

5. “Obodonlashtirish oyligi”ni o‘tkazishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratsin:

Vazirlar Mahkamasining **“O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”** 2018-yil 10-maydagi 349-son qaroriga muvofiq mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya etish;

avtomobil yo‘llari, harakatlanish tig‘iz bo‘lgan ko‘chalar, suv ob’ektlari, qirg‘oqbo‘yi hududlari va zonalari, qurilish maydonlari, bino va inshootlar tomlari, xavfli ishlab chiqarish ob’ektlari, shuningdek, insonlarning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘ilishi mumkin bo‘lgan boshqa joylarda ixtiyoriy tashabbus bilan tadbirlar va boshqa ishlarni o‘tkazish taqiqlanganligini qat’iy nazoratga olish;

joylarda ish beruvchilar tomonidan obodonlashtirish ishlari uchun xodimlarni majburiy tarzda jalb etishga yo‘l qo‘ymaslik.

6. “Obodonlashtirish oyligi” doirasida amalga oshiriladigan ishlarning kunlik nazoratini olib borish maqsadida ilovaga muvofiq shtab tashkil etilsin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov **“Obodonlashtirish oyligi”ni tizimli** doirasida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga kunlik axborot taqdim etib borsin.

7. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (S.Turmanov), **Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi** (A.Qurbanbaev) “Mahalla” hayriya jamoat fondi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi (A.Saparov) bilan birgalikda **“Obodonlashtirish oyligi”**ni o‘tkazishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchi tashkilotlarning ishtirokini qonunchilikda o‘rnatilgan asos va tartiblarda ta‘minlash choralari ko‘rsin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Axborot xizmati (B.Xojanov) “Qoraqalpog‘iston teleradiokompaniyasi” (Q.Bekbauliev) va boshqa ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda **“Obodonlashtirish oyligi”** doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni keng yoritish choralari ko‘rsin.

“Qoraqalpog‘iston teleradiokompaniyasi” (Q.Bekbauliev) **“Obodonlashtirish oyligi”** tadbirlarida aholininig faol ishtirok etishini targ‘ib qilish uchun maxsus videoroliklar tayyorlab, namoyish qilinib borilishini tashkil etsin.

9. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (S.Turmanov) Nukus shahri va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini har bir xonadongacha kirib borishini nazarda tutadigan “Obod xonadon” dasturini ishlab chiqib, ikki oy muddatda Vazirlar Kengashiga taklif kiritsin.

Bunda:

har bir xonadon hududini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish;

har bir xonadonga sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish, tozalik va ozodalik, shaxsiy gigiena madaniyati bilan birga resurslardan, avvalo, ichimlik suvi va energiya resurslaridan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

dastur doirasida o‘z xonadonida ozodalik va saranjom-sarishtalik bo‘yicha ijobiy natijalarga erishgan, suv va energiya tejevchi texnologiyalar o‘rnatilgan fuqarolarni rag‘batlantirish mexanizmlari nazarda tutilsin.

10. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (A.Qurbanbaev) Nukus shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda qonunchilikka muvofiq:

atrof tabiiy muhitga va insonlar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishining oldini olish maqsadida qurilish ob’ektlarida chang ko‘tarilishining oldini oluvchi innovatsiya texnologiyalari joriy qilinishini;

qurilish ob’ektlarida ishlar boshlanishidan oldin qurilish chiqindilarini olib chiqib ketish bo‘yicha shartnomalar tuzilishini hamda yuk transport vositalariga GPS tizimi o‘rnatilishini qat’iy nazoratga olsin.

11. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov Suv xo‘jaligi vazirligi (B.Juzbaev), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (A.Qurbanbaev), Nukus shahri va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rgangan holda, shaharlarda sug‘orish tizimini tiklash va rivojlantirishni nazarda tutuvchi takliflarni tayyorlab, Vazirlar Mahkamasida taqdimot qilsin.

12. Atrof tabiiy muhit, inson salomatligi va odamlarning mol-mulkiga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida Ichki ishlar vazirligi avtotransport vositalarining ochiq yuk tashish platformalarida qurilish materiallari, chiqindilar va to‘kiladigan boshqa yuklarni majburiy tartibda brezent yoki boshqa qalin material bilan yopilgan holda tashilishini qat’iy nazoratga olsin hamda huquqbuzarlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan jazo choralarning qo‘llanilishini ta’minlasin.

13. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi M.Djumaniyazov Nukus shahri va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda belgilangan tartibda:

chiqindilarning belgilanmagan joylarga tashlanishining oldini olish maqsadida ushbu hududlarga bosqichma-bosqich kuzatuv kameralari o‘rnatilishini ta’minlash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi bilan birgalikda belgilanmagan joylarga chiqindilarni tashlagan sub’ektlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan jazo choralari qo‘llanilishini qat’iy nazoratga olish;

bir oy muddatda tabiatning xushmanzara va so‘lim joylarida aholining qisqa muddatli dam olish maskanlarini (“piknik” zonalar, manzarali tomosha qilish maydonchalari va boshqalar) zamonaviy talablar asosida tashkil etish yuzasidan Vazirlar Kengashiga taklif kiritsin;

joriy yil 20 avgustga qadar bir martalik plastik mahsulotlar, shu jumladan, stakanlar, plastik naychalar, muzqaymoq tayoqchalari, paxta tayoqchalari, qadoqlash plyonkasi va ayrim turdagi polietilen paketlarini olib kirish, sotish va ishlab

chiqarishni taqiqlash yuzasidan qonun loyihasiga belgilangan tartibda Vazirlar Kengashiga taklif kiritsin;

joriy yil yakuniga qadar davlat ekologik nazorati inspektorlarini “bodi kamera”lar bilan ta’minlash choralari ko’rsin.

14. Kadastr agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (I.Tleuov) Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (M.Djumaniyazov) bilan birgalikda o‘n kun muddatda chiqindi poligonlari va chiqindi yig‘ish shoxobchalarining kadastr hujjatlarini imtiyozli tartibda rasmiylashtirish choralari ko’rsin.

15. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmanda qoldiraman.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 2-avgustdagi
160-13-0-F/23-son farmoyishiga
1-ilova

“Obodonlashtirish oyligi”ni tizimli tashkil etish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasining

ShTABI TARKIBI

F.U.Ermanov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, <i>shtab rahbari</i>
Sh.Dauletiyarov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Rasining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, <i>shtab rahbarining o‘rinbosari</i>
B.Torebekov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri
M.Djumaniyazov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri
A.Qurbanbaev	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri
A.Davletov	-	Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i
S.Turmanov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri
M.Omarov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transport vaziri
B.Juzbaev	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri
Q.Nurumbetov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vaziri
D.Joldasov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat vaziri
M.Sodiqov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vaziri
A.Narimbetov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’lim vaziri
N.Kayupov	-	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi boshlig‘i
X.Bekchanov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Soliq boshqarmasi boshlig‘i
A.Aminov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi agentligi direktori
X.Qaypnazarov	-	Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i

lavozimiga ko'ra	-	Qoraqalpog'iston Respublikasi Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi Raisi
Sh.Dauletiyarov	-	Qoraqalpog'iston Respublikasi Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi boshlig'i
B.Madaminov	-	Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i
A.Nurimbetov	-	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Qoraqalpog'iston filiali boshlig'i
X.Aymanov	-	"Hududgazta'minot Qoraqalpog'iston" GTF direktori boshlig'i